## “Xavfsiz daryo” DUKning asosiy vazifalari

daryo o‘zanlarini tozalash jarayonida qum-shag‘al qazib olish ishlarini olib borish uchun loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ular bo‘yicha davlat ekologik ekspertizasi xulosasini olish;

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi xodimlari bilan birgalikda doimiy ravishda joylarga chiqqan xolda daryolar o‘zanlarini tozalash ishlari olib borilayotgan uchastkalardagi holatni o‘rganish;

shartnoma asosida jalb etilgan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan daryolar o‘zanlarini tozalash ishlari natijasida olingan qum-shag‘al materiallari hajmining hisobini yuritish;

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birgalikda daryolar o‘zanlarida qum-shag‘al materiallari to‘planib qolgan va tozalanishi lozim bo‘lgan uchastkalar ro‘yxatini tasdiqlash uchun Komissiyaga kiritish.